TIL ÖRGANIŞDA MOBIL ILOVALAR VA SUN'IY INTELLEKTDAN FOYDALANIŞ SAMARADORLIGI

Abdullayeva Gulbahor Nuriddinovna
Navoiy davlat universiteti Ingliz tilşunosligi kafedrasi katta öqituvçisi (PhD), abdullaevagulbahorphd@gmail.com
Kusimbayeva Jasmina Kalkamanovna
Navoiy davlat universiteti birinçi bosqiç talabasi
jkusimbayeva@gmail.com
Jalgasova Mereke Begaliyevna
Navoiy davlat universiteti birinçi bosqiç talabasi
jalgasovamereke@gmail.com

DOI: https://doi.org/10.5281/zenodo.24270323 · Qabul qilindi: 10.11.2026 · Ma'qullandi: 13.11.2026 · Nashr qilindi: 16.11.2026

Annotatsiya: Mazkur maqolada xorijiy tillarni örgatişda mobil ilovalar va sun'iy intellekt (SI) texnologiyalaridan foydalanişning samaradorligi nazariy va amaliy jihatdan tahlil qilinadi. Mobil ilovalar (Duolingo, Memrise, Busuu) hamda SI asosidagi vositalarning (suhbatdoş çatbotlar, avtomatik yozuv tahlili va nutqni aniqlaş tizimlari) öquvçilar motivatsiyasi, luğat boyligi, talaffuzi va mustaqil ta'lim könikmalariga ta'siri körib çiqiladi. Şuningdek, texnologiyalarning çeklovlari — pragmatik kompetensiyaning yetişmasligi, SI javoblaridagi noaniqlik va haddan taşqari tayanib qoliş xavfi muhokama qilinib, an'anaviy darslar bilan raqamli vositalarni uyğunlaştiriş böyiça amaliy tavsiyalar beriladi. Kalit sözlar: mobil ilovalar, sun'iy intellekt, çatbot, xorijiy til, öquv motivatsiyasi, şaxsiylaştirilgan ta'lim, aralaş ta'lim, luğat boyligi.

Аннотация: В данной статье анализируется эффективность использования мобильных приложений и технологий искусственного интеллекта (ИИ) при обучении иностранным языкам. Рассматривается влияние мобильных платформ (Duolingo, Memrise, Busuu) и инструментов на базе ИИ (разговорные чат-боты, системы автоматической проверки письма и распознавания речи) на мотивацию учащихся, расширение словарного запаса, произношение и навыки самостоятельного обучения. Также обсуждаются ограничения цифровых технологий, включая недостаточный охват прагматических аспектов языка и риск чрезмерной зависимости от ИИ, и предлагаются практические рекомендации по их интеграции в традиционный учебный процесс.

Ключевые слова: мобильные приложения, искусственный интеллект, чат-бот, иностранный язык, учебная мотивация, персонализированное обучение, смешанное обучение, лексика

EFFECTIVENESS OF USING MOBILE APPLICATIONS AND ARTIFICIAL INTELLIGENCE IN LANGUAGE LEARNING

Abstract: This article examines the effectiveness of utilizing mobile applications and artificial intelligence (AI) technologies in foreign language teaching. The impact of mobile platforms (Duolingo, Memrise, Busuu) and AI-powered tools (conversational chatbots, automated writing evaluation, and speech recognition systems) on learners' motivation, vocabulary acquisition, pronunciation, and autonomous learning skills is analyzed. Furthermore, the limitations of these technologies—such as insufficient coverage of pragmatic competence, AI inaccuracies, and over-reliance—are discussed, concluding with practical recommendations for integrating digital tools into traditional classroom instruction.

Keywords: mobile applications, artificial intelligence, chatbot, foreign language, learning motivation, personalized learning, blended learning, vocabulary

Kiriş

Raqamli texnologiyalarning jadal rivojlanişi zamonaviy til ta'limi paradigmasini tubdan özgartirdi. Bugungi kunda smartfon va mobil qurilmalar deyarli har bir talaba hamda öquvçining kundalik hamrohiga aylanib, vaqt va makondan qat'i nazar xorijiy tillarni özlaştiriş imkonini bermoqda. Sönggi yillarda esa generativ sun'iy intellekt (SI) tizimlarining keng tarqalişi til örganuvçilarga şaxsiy repetitor sifatida jonli muloqot olib boriş, yozma va oğzaki xatolarni tezkor tahlil qiliş hamda individual öquv topşiriqlarini şakllantiriş imkoniyatini yaratdi.

Özbekiston ta'lim tizimi şaroitida uşbu mavzu alohida dolzarblik kasb etadi. Yoşlar orasida ingliz, rus, koreys, nemis va yapon tillarini örganişga bölgan ehtiyoj tobora ortib borayotgan bir paytda, barça hududlarda ham tabiiy til muhiti va yuqori malakali mutaxassislar bilan töliq ta'minlaş imkoniyati bir xil emas. Mobil ilovalar va SI vositalari mazkur tösiqlarni qisman bartaraf etib, ta'lim sifatini oşirişga xizmat qilişi mumkin. Biroq ularning haqiqiy didaktik samaradorligi qay darajada ekani va qaysi pedagogik şaroitlarda eng yuqori natija berişi masalasi çuqur ilmiy tahlilni talab etadi.

Tadqiqotning maqsadi — xorijiy tillarni örganiş jarayonida mobil ilovalar va sun'iy intellekt vositalarining samaradorligini nazariy hamda amaliy jihatdan baholaş, ularning afzallik va çeklovlarini aniqlaş hamda öquv jarayoniga oqilona tatbiq etiş böyiça ilmiy-amaliy tavsiyalar işlab çiqişdan iborat.

Tadqiqot savollari: (1) mobil ilovalar til kompetensiyasining qaysi jihatlarini eng samarali rivojlantiradi; (2) SI vositalari an'anaviy öqitiş metodlariga qanday qöşimça didaktik imkoniyatlar taqdim etadi; (3) raqamli texnologiyalardan foydalanişda qanday pedagogik va texnik xavflar mavjud?

© 2026 Bulletin of International Journals · Germany · ISSN 2750-3402 · CC BY 4.0

1. Nazariy asoslar va adabiyotlar şarhi

Mobil qurilmalar vositasida til örganiş xalqaro ilmiy adabiyotlarda Mobile-Assisted Language Learning (MALL) atamasi bilan yuritiladi. MALL yönalişida ötkazilgan keng qamrovli meta-tahlillar mobil ilovalar til özlaştirişga sezilarli ijobiy ta'sir körsatişini, ayniqsa leksik boylikni oşiriş va grammatik könikmalarni mustahkamlaşda yuqori samara berişini tasdiqlaydi [Sung, çang, Yang, 2015:79; Burston, 2015:14]. Şu bilan birga, tadqiqotçilar yakuniy natija topşiriqlarning didaktik dizayni, maşğulotlar davomiyligi va öqituvçi nazoratiga bevosita boğliq ekanini alohida ta'kidlaydilar.

Mobil ilovalarning samaradorligi uçta asosiy kognitiv-psixologik tamoyilga tayanadi. Birinçidan, oraliqli takrorlaş (spaçed repetition) algoritmi G. Ebbinghausning unutiş egri çiziğiga asoslanib, yangi leksik birliklarni xotiradan kötariliş arafasida qayta taqdim etadi va uzoq muddatli xotirani mustahkamlaydi. Ikkinçidan, öyinlaştiriş (gamifiçation) mexanizmlari — ball töplaş, darajalardan ötiş, kunlik uzluksiz seriyalar (streak) va reyting jadvallari talabalarning taşqi motivatsiyasini qöllab-quvvatlaydi. Uçinçidan, mikro-örganiş (miçrolearning) konsepsiyasi öquv materialini 5–10 daqiqalik ixçam modullarga ajratib, kognitiv yuklamani kamaytiradi.

Sun'iy intellektga asoslangan til ta'limi vositalarining nazariy poydevori esa S. Kraşenning «tuşunarli kiriş» (çomprehensible input) gipotezasi [Kraşen, 1982:21] hamda L. Vigotskiyning «yaqin rivojlaniş zonasi» nazariyasi [Vygotsky, 1978:86] bilan uzviy boğliqdir. Generativ SI tizimlari matn va muloqot murakkabligini talabaning joriy bilim darajasiga avtomatik moslaştirib, bosqiçma-bosqiç kömak (sçaffolding) körsatadi.

Sönggi yillarda olib borilgan ilmiy izlanişlar generativ sun'iy intellekt, xususan çatGPT kabi katta til modellarining xorijiy til örganişdagi örnini yangi bosqiçga olib çiqdi. Tadqiqotlar şuni körsatadiki, SI çatbotlari öquvçilarning yozma nutq ravonligini oşiriş, akademik söz boyligini kengaytiriş va individual öquv traektoriyasini şakllantirişda samarali vosita bölib xizmat qilmoqda [Alharbi, 2023:154; Kohnke, 2023:788]. Özbekistonlik tadqiqotçilar ham raqamli texnologiyalar va sun'iy intellekt elementlarini xorijiy til darslariga integratsiya qiliş talabalarning kommunikativ kompetensiyasini rivojlantirişda muhim omil ekanini qayd etmoqdalar [Qodirova, 2024:116; Kaştalyan, Karimova, 2022:795].

2. Tadqiqot metodologiyasi

Tadqiqotda nazariy tahlil va empirik kuzatuvni birlaştiruvçi aralaş (mixed-methods) metodologik yondaşuv qöllanildi. Birinçi bosqiçda MALL va sun'iy intellektning til ta'limidagi örniga bağişlangan 2012–2024-yillardagi xalqaro va mahalliy ilmiy manbalar qiyosiy tahlil qilindi.

Ikkinçi bosqiçda Navoiy davlat universitetining xorijiy tillar yönalişida tahsil olayotgan 120 nafar 1-bosqiç talabalari (yoşi 17–21 yoş oraliğida) örtasida anonim onlayn sörovnoma ötkazildi. Sörovnoma savollari talabalarning mobil ilovalar va SI vositalaridan foydalaniş çastotasi, ularni qöllaş maqsadlari (luğat, grammatika, talaffuz, yozuv yoki suhbat amaliyoti), öquv motivatsiyasiga ta'siri hamda duç kelinayotgan qiyinçiliklarni aniqlaşga qaratildi. Olingan miqdoriy ma'lumotlar statistik qayta işlanib, tizimlaştirildi.

3. Natijalar va muhokama

3.1. Mobil ilovalarning afzalliklari va sörovnoma natijalari

Ötkazilgan tahlillar mobil ilovalarning uçta asosiy ustunligini körsatdi: (1) vaqt va makon erkinligi hisobiga muntazam şuğullaniş odatining şakllanişi; (2) oraliqli takrorlaş asosida luğat boyligi va bazaviy grammatikaning samarali özlaştirilişi; (3) bepul yoki arzon versiyalarning mavjudligi tufayli keng qamrovlilik. Jumladan, Duolingo samaradorligiga bağişlangan tadqiqotda ilovada muntazam şuğullaniş boşlanğiç universitet kursi darajasiga yaqin natija berişi qayd etilgan [Vesselinov, Grego, 2012:12], biroq mazkur tadqiqotning işlab çiquvçi kompaniya buyurtmasi bilan ötkazilganini hisobga olib, natijalarga tanqidiy yondaşiş lozim.

Navoiy davlat universiteti talabalari örtasida ötkazilgan sörovnoma natijalari ham uşbu nazariy xulosalarni tasdiqladi (1-jadval). Respondentlarning 88,3 foizi (106 nafar talaba) xorijiy til örganişda kamida bitta mobil ilova yoki SI vositasidan haftasiga 3 martadan köp foydalanişini bildirgan.

1-jadval

Talabalarning mobil ilovalar va SI vositalaridan foydalaniş körsatkiçlari (N = 120)

Vosita turi / Nomi	Foydalanuvçilar uluşi (%)	Asosiy qöllaniş maqsadi	Samaradorlik bahosi (5 ballik)
Duolingo / Memrise / Busuu	74,2 % (89 nafar)	Luğat boyligini oşiriş, kunlik maşqlar	4,3
çatGPT / Generativ SI	65,8 % (79 nafar)	Matn tuziş, grammatik tahlil, dialog	4,6
Quizlet / Anki	51,7 % (62 nafar)	Fleş-kartalar orqali atamalar yodlaş	4,4
ELSA Speak / Talaffuz ilovalari	28,3 % (34 nafar)	Talaffuzni tekşiriş va fonetik maşqlar	4,1
Avtomatik tarjimonlar (DeepL)	81,7 % (98 nafar)	Matn tarjimasi va kontekstni tuşuniş	4,0

3.2. Sun'iy intellektning didaktik imkoniyatlari

An'anaviy mobil ilovalardan farqli ölaroq, generativ sun'iy intellekt vositalari dinamik va ijodiy muloqot muhitini yaratadi. Birinçidan, SI çatbotlari öquvçiga istalgan vaqtda xato qiliş qörquvisiz (til tösiği va psixologik xavotirsiz) suhbat quriş imkonini beradi. Ikkinçidan, zudlik bilan beriladigan tahliliy teskari aloqa (instant feedbaçk) talabaning yozma işidagi grammatik, leksik va uslubiy xatolarni aniqlab, ularning qoidasini tuşuntirib beradi [Alharbi, 2023:160]. Uçinçidan, şaxsiylaştiriş imkoniyati tufayli SI talabaning darajasi (masalan, B1 yoki B2) va maqsadiga (IELTS tayyorgarligi, kasbiy ingliz tili) mos matnlar, testlar va rolli öyin ssenariylarini yaratadi.

© 2026 Bulletin of International Journals · Germany · ISSN 2750-3402 · CC BY 4.0

3.3. çeklovlar va pedagogik xavflar

Yuqori imkoniyatlarga qaramay, mobil ilovalar va SI texnologiyalaridan nazoratsiz foydalaniş qator muammolarni keltirib çiqaradi. Jumladan, generativ SI modellarida kuzatiladigan «gallyutsinatsiya» hodisasi — işonçli köringan, ammo ilmiy yoki grammatik jihatdan notöğri ma'lumot taqdim etiş holatlari boşlanğiç darajadagi öquvçilarni çalğitişi mumkin. Şuningdek, mobil ilovalardagi sun'iy jumlalar real jonli nutqning pragmatik va madaniy nozikliklarini töliq aks ettirmaydi. Sörovnoma iştirokçilarining 42 foizi tayyor SI javoblariga haddan taşqari tayanib qoliş mustaqil fikrlaş va ijodiy yoziş könikmasini susaytirişini qayd etgan. Bundan taşqari, foydalanuvçi ma'lumotlari maxfiyligi hamda hududlar kesimidagi internet tezligi bilan boğliq raqamli tengsizlik masalalari ham dolzarbligiça qolmoqda.

4. Amaliy tavsiyalar

Tadqiqot natijalariga asoslanib, oliy ta'lim muassasalarida xorijiy tillarni öqitiş samaradorligini oşiriş maqsadida quyidagi amaliy tavsiyalar ilgari suriladi:

1. Aralaş ta'lim (blended learning) modelini joriy etiş: mobil ilovalar va SI vositalarini auditoriya maşğulotlarining örnini bosuvçi emas, balki ularni töldiruvçi vosita sifatida qöllaş; bunda luğat va grammatik maşqlar mustaqil ta'limga, jonli munozara va pragmatik tahlil esa dars jarayoniga yönaltiriladi.

2. Talabalarda «SI savodxonligi» va tanqidiy fikrlaşni şakllantiriş: öquvçilarga aniq sörov (prompt) tuziş, SI javoblarini akademik luğatlar bilan soliştirib tekşiriş hamda avval topşiriqni mustaqil bajarib, söngra SI yordamida tahrirlaş madaniyatini singdiriş.

3. Vositalarni funksional maqsadga köra taqsimlaş: leksik boylikni oşiriş uçun oraliqli takrorlaş ilovalaridan (Anki, Quizlet), talaffuzni şakllantiriş uçun nutqni aniqlaş tizimlaridan (ELSA Speak), yozma va oğzaki nutq amaliyoti uçun esa generativ SI çatbotlaridan maqsadli foydalaniş.

4. Pedagog kadrlar malakasini oşiriş: til öqituvçilari uçun zamonaviy raqamli platformalar, sun'iy intellekt vositalari va axborot xavfsizligi talablari böyiça muntazam öquv-seminarlar taşkil etiş.

Xulosa

Xulosa qilib aytganda, mobil ilovalar va sun'iy intellekt texnologiyalari xorijiy tillarni örganişni ommabop, moslaşuvçan va şaxsiylaştirilgan jarayonga aylantirib, ayniqsa luğat boyligini kengaytiriş, tezkor yozma tahlil oliş va muloqot xavotirini kamaytirişda yuqori samaradorlikka ega. Biroq uşbu raqamli vositalar jonli til muhiti, madaniy-pragmatik kompetensiya va pedagogik yönaltirişning örnini töliq bosa olmaydi. Eng yuqori ta'limiy natijaga an'anaviy öqitiş metodlari, öqituvçi rahbarligi hamda talabaning tanqidiy va faol iştiroki raqamli texnologiyalar bilan uyğunlaştirilgandagina erişiş mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

[1] Alharbi, M. Generative AI in foreign language learning: A study on ChatGPT's impact on English vocabulary acquisition and writing skills // Journal of Educational Technology Systems. – 2023. – Vol. 52(2). – P. 145–168.

[2] Burston, J. Twenty years of MALL project implementation: A meta-analysis of learning outcomes // ReCALL. – 2015. – Vol. 27(1). – P. 4–20.

[3] Kashtalyan, S., Karimova, M. The role of artificial intelligence and mobile applications in modern language classrooms // European Journal of Contemporary Education. – 2022. – Vol. 11(3). – P. 789–801.

[4] Kohnke, L. L2 learners' perceptions of artificial intelligence applications in language learning // RELC Journal. – 2023. – Vol. 54(3). – P. 785–791.

[5] Krashen, S. D. Principles and Practice in Second Language Acquisition. – Oxford: Pergamon Press, 1982. – 202 p.

[6] Qodirova, Z. A. Xorijiy tillarni öqitişda raqamli texnologiyalar va sun'iy intellekt imkoniyatlari // Özbekistonda xorijiy tillar. – 2024. – № 2(54). – B. 112–125.

[7] Sung, Y.-T., Chang, K.-E., Yang, J.-M. How effective are mobile devices for language learning? A meta-analysis // Educational Research Review. – 2015. – Vol. 16. – P. 68–84.

[8] Vesselinov, R., Grego, J. Duolingo Effectiveness Study. – New York: City University of New York, 2012. – 25 p.

[9] Vygotsky, L. S. Mind in Society: The Development of Higher Psychological Processes. – Cambridge: Harvard University Press, 1978. – 159 p.

© 2026 Bulletin of International Journals · Germany · ISSN 2750-3402 · CC BY 4.0